



Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari” yo‘nalishi		
№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Aholini sog'lomlashtiruvchi mashqlar kompleksi va to'g'ri ovqatlanishni nazorat qilish kompyuter dasturi va uning mobil ilovasini yaratish</p> 	<p>Tadqiqotning shakli: Aholini sog'lomlashtiruvchi mashqlar kompleksi va to'g'ri ovqatlanishni nazorat qilish kompyuter dasturi va uning mobil ilovasini yaratish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - texnologik loyihani amalga oshirishda aholini sog'lomlashtiruvchi mashqlar kompleksi va to'g'ri ovqatlanishni nazorat qilish kompyuter dasturi va uning mobil ilovalar sog'lom ovqatlanish madaniyatini rivojlantirishga va to'g'ri ovqatlanish ratsioni kaloriyalarni hisoblab chiqadi va ovqatlanish rejasini foydalanuvchining didiga qarab moslashtiriladi; - mobil ilovada oddiy va yoqimli tarzda tanani yaxshi shaklga keltirish uchun qisqa 10 daqiqalik mashqlar kompleksi ishlab chiqiladi; - kompyuter dasturi statistik ma'lumotlarni umumlashtirib, tahlil qilinadi va tegishli tavsiyalar shakllantiriladi; - individual foydalanuvchilarning jismoniy holati, jinsi, vazni, yoshi va maqsadlarini hisobga olgan holda tuzilgan shaxsiy rejaga muvofiq amalga oshiriladi; - texnologik jarayonlar va natijalar ilmiy ahamiyati avtomatlashtirilgan qurilmalarini hisobga olish va nazorat qilish sharoitida texnik ma'lumotlarni monitoring tizimini yaratish uslubiyatini ishlab chiqiladi; - texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish muammolarini samarali hal etish, shuningdek qo'llanilgan tizimlar algoritmlarning mantiqiy sxemalarini yagona tizim asosida shakllantirilgan texnik ma'lumotlar bazasini modellashtiriladi hamda sintez va ifodalash tariqasida izohlanadi; - aholiga o'z smartfonlaridan foydalanib o'z sog'lig'i va ovqatlanishini nazorat qilish bo'yicha mobil ilova yaratiladi. <p>Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Sport vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi.</p> <p>Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p> <p style="text-align: center;">Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 1500 barobari</p>

**Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Raqamli kriminalistika yordamida kibermakondagi jinoyatlarga qarshi kurashish va elektron ma'lumotlarni samarali boshqarishga mo'ljallangan avtomatlashtirilgan axborot-tahlil tizimini ishlab chiqish</p> 	<p>Tadqiqotning shakli: Raqamli kriminalistika yordamida kibermakondagi jinoyatlarga qarshi kurashish va elektron ma'lumotlarni samarali boshqarishga mo'ljallangan avtomatlashtirilgan axborot-tahlil tizimini ishlab chiqish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - raqamli kriminalistika usullarini qo'llagan xolda kibermakondagi jinoyatlarga qarshi kurashish, fosh etish va raqamli dalillarni boshqarishga mo'ljallangan avtomatlashtirilgan axborot tizimlariga oid amaliy tajribalar va ilmiy-nazariy manbalar o'rganiladi va tahlil qilinadi; - axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarni tahlil qilish maqsadida statistik va kriminalistik ma'lumotlarni o'z ichiga olgan yagona elektron baza shakllantiriladi; - yagona ma'lumotlar bazasi asosida zamonaviy kriminalistik faoliyatni joriy etish maqsadida raqamli dalillarning yagona reyestri yaratiladi; - raqamli texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash va tahlil qilish, shuningdek uyushgan guruh jinoiy tuzilmalarini identifikatsiyalashga xizmat qiladigan kompleks analitik tizim ishlab chiqiladi; - surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirish vakolatiga ega davlat organlari ma'lumot almashinuvi uchun maxsus himoyalangan aloqa tarmog'i yaratiladi; - raqamli dalillarni protsessual qonunchilik va axborot xavfsizligi talablariga muvofiq ravishda ularning yaxlitligi, kompleks saqlash va himoya qilish tizimi yaratiladi; - reyestrda kiritiladigan kriminalistik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarning kengaytirilgan ro'yxati ishlab chiqiladi; - “Raqamli dalillar yagona reyestri”ni shakllantirish va undan amaliyotda samarali foydalanish tartibi ishlab chiqiladi; - “Raqamli dalillar yagona reyestri” idoralararo avtomatlashtirilgan axborot tizimini yaratish bo'yicha texnik topshiriq ishlab chiqiladi; — kibermakondagi jinoyatlarni aniqlash va ularga qarshi kurashishda raqamli kriminalistika faoliyatini takomillashtirish uchun “Raqamli dalillar yagona reyestri” idoralararo avtomatlashtirilgan axborot tizimi yaratiladi; - “Raqamli dalillar yagona reyestri” avtomatlashtirilgan axborot tizimidan foydalanishda ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha surishtiruv va dastlabki tergovni amalga oshirish vakolatiga ega davlat organlari mansabdor shaxslari va ekspert-kriminalistlar uchun o'quv mashg'ulotlari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. <p>Natijalarni sinovdan o'tkazish: Tadqiqot natijalari Bosh prokuratura tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi.</p>

	Ilmiy natijalarni chop etish: Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.
--	--

Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari

**Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*